

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON SHAROITIDA OILAVIY MUNOSABATLAR TRANSFORMATSIYASI

Abduraxmanov Rustam Maxmudovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Tyutori
(Ta’lim - tarbiya maslahatchisi)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397254>

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila, Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi hamda oilaviy urf-odat, an'ana va qadriyatlar transformatsiyasi hamda oila mustahkamligi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi, Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi, Oila kodeksi.

TRANSFORMATION OF FAMILY RELATIONS IN THE CONDITIONS OF MODERNIZING UZBEKISTAN

Abstract. This article discusses the family, the scientific-practical center of the Republic "Family" and the transformation of family customs, traditions and values, as well as the strength of the family.

Key words: transformation of family values, Republican Scientific and Practical Center "Family", Family Code.

ТРАНСФОРМАЦИЯ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье рассматривается семья, научно-практический центр Республики «Семья» и трансформация семейных обычаев, традиций и ценностей, а также сила семьи.

Ключевые слова: трансформация семейных ценностей, Республиканский научно-практический центр «Семья», Семейный кодекс.

Tarixda qadimdan oila muqaddas hisoblangan. Albatta oiladan an'ana, qadriyatlar, eng avvalo inson zotining ilk tarbiya jarayoni shakllanadi. Oila har birimiz uchun Vatan hisoblanadi. Ota-ona, farzandlar, ularning bir-birlari bilan munosabatlari, iliq munosabatlar, mehr-muhabbat, barchasi bizga oilani tasvirlaydi. Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarini o'zida sinovdan o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga

qo‘shish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma‘rifatini ham belgilashga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.¹ Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib kelingan. Xususan, o‘zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi.

O‘zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro‘zg‘or tutishi, farzandlarni odobli, ma‘naviy yetuk bo‘lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta.

O‘zbek oilalari o‘zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlarini bilan ajralib turadi.²

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o‘rin egallaydi.³ O‘zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko‘ra, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo‘lish huquqiga ega. Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan.

Jumladan, "Kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to‘g‘risida" 1994-yil 22-avgustda farmon chiqarilib, muhtoj oilalarga moddiy va ma‘naviy yordam berishning ko‘lami kengaytirildi. Oilani jamiyatning ravnaq topilishidash tutgan o‘rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 1998-yilni "Oila yili" deb e‘lon qildi. Shunga asosan, oila manfaatlarini ta‘minlash borasidaamalga oshiriladigan tadbirlar to‘g‘risida davlat dasturi ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi huzurida Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilingan.⁴Oila a‘zolari o‘rtasida sodir bo‘layotgan murakkab munosabatlar ko‘plab olimlar, shu jumladan, O‘zbekistonlik olimlar M.Davletshin, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog‘inovlar tomonidan o‘rganilgan. Ularda ko‘proq o‘zbek oilasiga xos urf-odatlar, an‘analar udumlar nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan.

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>

³ <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/download/155/261/150>


⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>

Oila institutini ijtimoiy voqelik sifatida uning qonunyatlarini tahlil etar ekanmiz, bu o‘rinda biz oilaviy, o‘zaro munosabatlarga xos bo‘lgan munosabatning psixologik tabiatdan kelib chiqishi, va dinamikasiga e‘tiborni qaratgan ko‘plab tadqiqotlarda ilgari surilgan ma‘lumotlarni keltirishni joiz deb bildik.⁵


Bugungi zamonaviy jamiyatda oila va oilaviy munosabatlar bir oz o‘zgarganini kuzatish mumkin. Insoniyat butun hayoti davomida ijtimoiylashib boradi va ilk ijtimoiylashuv jarayoni, albatta oilada kechadi. Biz hayotimiz davomida yuqori cho‘qqilarga erishishga harakat qilamiz va bu yo‘lda turli mashaqqatlarni boshdan kechiramiz, ba‘zan g‘olib bo‘lamiz, ba‘zan mag‘lub bo‘lamiz. Shu tariqa hayot davom etaveradi. Lekin har bir ishni intihosi bo‘lgani kabi, hayotda ham har bir insonning harakatlanuvchi davri, harakatlanishning quyi davri va harakatning sekinlashish davri kechadi. Ushbu har bir davrda biz oilada bo‘lamiz, ayniqsa sekinlashish davrida va ilk davrlarda oilaning o‘rni juda ham muhim hisoblanadi.

Eng aktiv davr bu o‘rta davr bo‘lib, bu davrda eng ko‘p yoshlar aktiv harakat qiladi. Ushu davrda bir oz oiladan uzoqlashish davri hisolanadi. Ya‘ni doimiy kundalik hayot aktivlik oiladan ozgina chetlashtiradi. Lekin aynan shu davrda bizga harakatimizning sekinlashgan davriga fundament yaratiladi. Ushu davrda aktiv hayotiy tarzni kechirayotgan bo‘lsakda, oila rishtalarini ham esdan chiqarmaslik, kelajakka ijobiy zamin yaratiladi. Zamonaviy jamiyatda, bugungi yangilanayotgan mamlakatimizda oilaviy munosabatlar qanday o‘zgarimoqda, oila haqida aholining fikri qanday shakllanmoqda, – degan fikrlar bilan 800 nafar aholi orasida “Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlar transformatsiyasi” mavzusida so‘rovnomani o‘tkazildi, olib borgan tadqiqotimizda 800 nafar respondent ishtirok etdi. Dastlab, oilalarning mustahkamligi yoki zaiflashuvining asosiy sabablarini aniqlash maqsadida sizningcha, bugungi kunda oilarning zaiflashib ketishiga ko‘proq nimalar sabab bo‘lmoqda? kabi savol bilan respondentlarga yuzlanganimizda ular quyidagicha fikr bildirishdi: yoshlarning milliy qadriyatlarni bilmasliklari oilalarning zaiflashuviga sabab bo‘ladi degan fikrni 6 % respondentlar, 12 % ota-onalar tomonidan oila muqaddasligi bo‘yicha yetarli darajada tarbiya va bilim berilmaganligi degan fikrni, 21 % hayotga yengil qarash, 16 % oilaga faqatgina reproduktiv o‘choq sifatida qaralayotganligi, 30 % oila mustahkamligi faqat moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liq degan fikrni, 15 % milliy qadriyatlarning o‘z o‘rnini yo‘qotib borayotganligi sabab oilalar zaiflashmoqda degan fikrni qo‘llab – quvvatlashmoqda.

⁵ file:///C:/Users/User/Downloads/oila-tushunchasi-va-oiladagi-ijtimoiy-munosabatlar-tizimi.pdf




Keyingi savolda ham oilalarning mustahkamligi yoki zaiflashuvining asosiy sabablarini aniqlash maqsadida sizningcha, bugungi kunda yosh oilarning buzilib ketishiga ko'proq nimalar ta'sir qilmoqda? kabi savol bilan respondentlarga murojaat qildik, respondentlarimizning 15 % qismi yoshlarning oila qurishga tayyor emasligi, 17 % yoshlarda oila haqidagi bilimlarning yetarli emasligi, 24 % yoshlarda moddiy boylikka nisbatan munosabat ehtiyoj yuqori ekanligi, 23 % yengil hayot kechirishga intilish, 12 % ota-onalar tomonidan oila haqida yetarli bilim berilmaganligi, 9 % respondentlar esa yoshlarning milliy qadriyatlarga nisbatan munosabatini asosiy sabab sifatida ko'rsatmoqda.




Keyingi savolda respondentlarga munosabatlar turlarini taqdim etgan holda quyidagi savol


bilan murojaat qildik hamda ularning fikrlariga quloq tutgan holda quyidagi savol bilan murojaat qildik: Sizningcha, oila mustahkamligida oiladagi munosabatlarning qaysi biri ahamiyatliroq? Tahlil natijalari quyidagicha bo`ldi: eng ko`p natija sifatida er-xotin munosabatlari 31.5 % natija qayd etildi, respondentlarimizning ko`pchiligi oila mustahkam bo`lishi uchun er-xotin o`rtasidagi munosabatlar, hurmat qilish, tushunish kabi xislatlar mujassam bo`lishi kerak degan fikrni, 19 % qaynona-kelin munosabatlari, 16 % ota-ona va farzand munosabatlari, 13.5 oiladagi boshqa a`zolar o`rtasidagi munosabatlar yaxshi bo`lishi kerak degan fikrni ilgari surishdi.



Keyingi savolda Sizningcha yosh oilalarni nikohdan so`ng katta oila (ota-ona) bilan birga yashashi oila mustahkamligiga qanchalik ta`sir ko`rsatadi? kabi savol bilan respondentlarimizga murojaat qilganimizda ular quyidagicha javob berishdi: 26 % qaynonalar yosh oila bilan birga turishlari kerak degan fikrni, 27 % yosh oila alohida yashashlari kerak degan fikrni, 13 % qaynona-qaynola yosh oila bilan yashashlari ijobiy natija bermaydi degan fikrni, 24 % yosh oila ma`lum vaqt alohida yashashi ma`qul degan fikrni, 10 % respondentlar esa ota-ona yosh kelin-kuyov bilan umuman birga turmasligi kerak degan fikrni ilgari surdilar.




Sizingcha, oila nimaga asoslanib qurilgani ma'qul? deya respondentlarga yuzlandik, 26 % sovchilik asosida, 29 % ota-ona xohishi bilan, 31 % sevgi asosida, 14 % qismi esa o'zaro kelishuv asosida oila qurilishi kerak degan fikrni qo'llab-quvvatladi.




Oila mustahkam bo'lishi uchun quyidagicha omillarni keltirgan holda respondentlarga quyidagicha savol bilan bilan yuzlandik:

Oila mustahkam bo'lishi uchun muhim bo'lgan omil nima, deb hisoblaysiz?
 Quyidagicha javob variantlariga ega boldik: 9 % yaxshi tarbiya ko'rganlik, 13 % oila a'zolari bilan kelishib yashash, 28 % moddiy ta'minlanganlik, 26 % er-xotin dunyoqarashining mosligi, 24 % qismi esa o'zaro muhabbat oila mustahkam bo'lishining asosiy omili deb hisoblaydi.



Sizni fikringizcha oilalar o'rtasidagi ajralishlarga asosan nima sabab bo'lmoqda? degan savolga 17 % moddiy yetishmovchilik, 35 % erta-nikoh, 19 % ota-ona aralashuvi, 13 % mas'uliyatsizlik, 16 % respondentlar esa ma'naviy qashshoqlik ajrimlarga sabab bo'lyapti degan fikr bildirishgan. Buni quyidagicha diagrammasida ko'rishimiz mumkin:



Xulosa

Axborotlashgan jamiyatimizda oilaviy munosabatlarning transformatsiyasi muhim o`rin tutadi, chunki oila jamiyatning asosini tashkil qiladi. Oilaviy munosabatlar esa jamiyatning tinch-totuvligining muhim poydevori hisoblanadi. Bugungi zamonaviy o`zbek oilasi jahonda sodir bo`layotgan barcha ijobiy o`zgarishu yangiliklardan o`z vaqtida boxabar bo`lib borayotgan, taraqqiy topgan mamlakatlar oilalari tarbiyasiga aloqador bo`lgan ilg`or tendensiyalar xususida o`z vaqtida eshitib, anglab tushunib olayotgan oila ekanligini ta`kidlash joiz. Hozirgi zamon aloqa vositalarining o`ta takomillashuvi, aloqa kommunikatsiyalarining haddan ziyod kengayishi natijasida yuksak rivojlanish yo`liga tushib olgan mamlakatlar oilalarining madaniyati, ichki ma`naviy muhiti, ota-ona va farzandlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar, xorijiy mamlakatlar jamiyatida ayollarning tutgan o`rni va mavqeyiga aloqador muhim fakt, lavha, tadqiqot, kuzatish va safar xotiralari respublikamiz ommaviy axborot vositalarida keng yoritilmoqda, ular haqidagi fikr-mulohazalar ko`pchilik diqqat-e`tiborini tortmoqda.⁶ Prezidentimiz: «Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo`lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo`lsa, baxtli bo`lsa, vatan tinch bo`ladi. O`sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko`rish hammamizga nasib etsin!», — deya ta`kidlagan.¹ Shuni aytib o`tish ham lozimki, jamiyatning tinchligi va farovonligi bevosita oila bilan bog`liq. Oilaning qadr-qimmatini va ahamiyatini yosh avlodga tushuntirish va sog`lom avlodni tarbiyalash uchun, avvalo ta`lim va tarbiya jarayonlariga katta ahamiyat qaratmog`imiz lozim.

REFERENCES

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>
3. <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/download/155/261/150>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>
5. <file:///C:/Users/User/Downloads/oila-tushunchasi-va-oiladagi-ijtimoiy-munosabatlar-tizimi.pdf>
6. <https://azkurs.org/ozbekiston-respublikasi-nizomiy-nomidagi-v2.html>

⁶ <https://azkurs.org/ozbekiston-respublikasi-nizomiy-nomidagi-v2.html>